

# СОМАТИК ПАТОЛОГИЯДА АКУШЕРЛИК ВА ПЕРИНАТАЛ ЖИҲАТЛАР



*Илмий-амалий конференция материаллари*

*т.ф.д., профессор А.А. Қодирова*

*ҳотирасига бағишиланади*

*Тошкент 5.03.2024й.*

protection and prevention HSP/HIV in Urgench adolescents is insufficient.

## **GINEKOLOGIK KASALLIKLARINING SHAKILLANISHIDA SEMIZLIKNING AHAMIYATI.**

Ayupova D.A.

Toshkent Tibbiyat Akademiyasi

**Mavzuning dolzarbliji:** Xozirgi kunga kelib dunyo aholisining qariyb 30% da semizlik kuzatilib, 1,7 mlrd insonni tashkil etadi va Jaxon Sog'likni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan yuqumli bo'limgan epidemiya deb ta'riflagan. JSST ning prognozlariga ko'ra, 2025-yilga qadar xozirgi o'sish sura'tini saqlab turganda, dunyoda 300 mlndan ortiq odam shu tashxis bilan yashaydi (James W.P.2014). Endogen va ekzogen omillar shu jumladan noto'gri ovqatlanish, texnologik jixatdan o'zgartirilgan maxsulotlardan foydalanish, noqulay ekologik sharoitlar, surunkali va somatik kasalliklarning chastotasi kombinatsiyasi semirib ketgan odamlarning soni tobora oshib borishiga olib keldi. Semirib ketish, ayniqsa, ayollarda reproduktiv kasalliklarning rivojlanishida muhim rol o'yinaydi, bu anovulyatsiya, hayz ko'rish buzilishi, AMK, bepushtlik, yordamchi reproduktiv terapiyani o'tkazishda qiyinchiliklar, abort qilish xavfi va homiladorlikning turli asoratlari va homiladorlik va tug'ilishning salbiy natijalari.

**Tadqiqot maqsadi:** Reproduktiv yoshdagи ayollarda ginekologik kasalliklarni rivojlanishida semizlikni o'rnini aniqlash.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** 2015-2021-yillar davomida ginekologiya bo'limiga (n=80) qabul qilingan ayollar tarixiga asoslangan ginekologik va reproduktiv tarixni retrospektiv taxlil qilish. 1- va 2-darajada semizlik kuzatilgan 60 nafar ayol tekshirildi. Asosiy gurux 30 nafar ayoldan iborat bo'lib, ular uglevod-yog almashinuvini yaxshilaydigan dori vositalari bilan kombinatsiyalangan terapiyani oldi. Taqqoslash guruxi vazn yo'qotish uchun jismoniy faollik va parxez

terapiyasidan foydalangan 30 nafar ayoldan iborat bo'ldi. Nazorat guruxiga 20 nafar semirib ketgan ayollar kirdi.

**Natijalar:** Tanlab olingan semizlik kuzatilgan reproduktiv yoshdagi ayollarda bepushtlik-15% shundan 10%-birlamchi bepushtlik, 5%-ikkilamchi bepushtlik, 8,75%-TPS, 11,25%-anamnezida homiladorlikning erta muddatlarida homilaning o'z-o'zidan tushishi va o'smasligi, 6,25%- AMK, 18,75%-arterial gipertensiya, 10%-anovulyator xayz sikli kuzatildi. 1-guruh I va II darajali semizlik kuzatilgan ayollarga uglevod-yog'almashinuvini yaxshilaydigan "metformin" dori vositasi berildi, 2-guruhga jismoniy faollik va parvez terapiyasidan foydalanildi. 1-guruh ayollarga "metformin" dori vositasi va jismoniy faollik, parvez birgalikda qo'llanganda 8%-ayollarda ovulyator xayz sikli tiklangan, 5%-ayolda tuxumdon kistalarini konservativ davolashga erishildi, 8%-birlamchi va 3%-ikkilamchi bepushtlik kuzatilgan ayolda tabiiy homiladorlik, 2%-ayolda EKU dan keying ijobiy natija olingan.

**Xulosalar:** Uchrash chastotasi reproduktiv yoshdagi ayollarda normal tana vaznidagi ayollarga nisbatan semizlik kuzatilgan reproduktiv yoshdagi ayollarda ginekologik kasalliklar yuqori korsatkichlarga ega. Uglevod-yog' modda almashinuvini yaxshilaydigan dori vositalarini qabul qilish ayollarga jismoniy faollik va parvez terapiyasi bilan davolash ijobiy natjalarga olib keldi.

## METABOLIK SINDROM VA UNING AYOL REPRODUKTIV SISTEMASIGA TA'SIRI

Jumaniyazov K.A., Jumaniyozova Sh.Q.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent Tibbiyat Akademiyasi Urganch filiali. Akusherlik va ginekologiya kafedrasi. Urganch shahri.

Metabolik sindrom- zamonavuy tibbiyat va amaliy sog'liqni saqlashning o'tkir va murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda , u organizmdagi o'zaro bog'liq holatlar, metabolik, gormonal va klinik